

K.Y. Jabbarov



# AMALIY BUXGALTERIYA

II qism

65  
J-13

279

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI


Jabbarov Kamoliddin Yo'ldoshevich

# AMALIY BUXGALTERIYA

(II qism)

O'quv qo'llanma

5230100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan



“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2024

Jabbarov Kamoliddin Yo'ldoshevich.

Amaliy buxgalteriya (II qism) [Matn]: o'quv qo'llanma / K.Y. Jabbarov. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 146 b.

Ushbu o'quv qo'llanma Davlat ta'lif standartlari talablari, amaliy buxgalteriya o'quv dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, 5230100 – "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" yo'nalishi bo'yicha ta'lif olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo'ladigan operatsiyalarni hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirish, moliyaviy faoliyat to'g'risidagi to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish hamda ushbu ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda tezkor yuritish va qayta ishlashni o'rgatadi. Mazkur o'quv qo'llanma talabalar uchun "Amaliy buxgalteriya" fanidan asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba va joriy amaliyot talablari asosida tayyorlangan bo'lib, undan boshqa iqtisodiy yo'nalishlarda tahlil olayotgan talabalar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mutaxassislari, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ham foydalaniishlari mumkin.


**Taqrizchilar:**

**To'rayev A.N.** – Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti "Buxgalteriya hisobi va hisoboti" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Qulmatov A.A.** – O'zbekiston Milliy universiteti "Makroiqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Mazkur o'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2024-yil 31-maydagi 8-sonli qaroriga asosan nashr qilishga tavsiya etilgan (393-sonli Guvohnoma).

ISBN 978-9910-06-311-4



© Jabbarov K.Y., 2024.

© "Bookmany print" nashriyoti, 2024.

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalarni bajarish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uni amalga oshirishga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Yangicha sharoitning talablariga moslashish birinchi navbatda katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlab, joriy faoliyatda foydalanish uchun iste’molga tayyor holatga olib kelishni nazarda tutadi.

Korxonalarda menejment tizimini yangi talablarga moslashtirish buxgalteriya hisobida joriy etilayotgan yangiliklar, sohada qo‘llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion mahsulotlar hamda ularni qo‘llash bo‘yicha tartib qoidalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar buxgalteriya sohasida ham o‘zgarishlarga olib keladi. Xususan, “Buxgalteriya hisobi xo‘jalik faoliyati bilan boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi kishilar o‘rtasida aloqa bog‘lovchi vosita bo‘lib hisoblanadi”<sup>1</sup>. Bu faktor buxgalteriya hisobiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi mahuslotlarning va dasturiy ta’milot vositalarining kirib kelishiga zamin hozirlaydi.

Bu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan, dasturiy ta’milot vositasida olib boriladigan “Amaly buxgalteriya” faniini chuqur o‘zlashtirish juda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda muvaffaqiyatli foydalanilib kelinayotgan ana shunday dasturlardan biri bu “1C” dasturiy ta’milot vositasidir.

Buxgalteriya hisobini va dasturiy ta’milot vositalariga asoslangan hisobni “o‘rganish” faqat nazariy jihatdan mumkin emas. Haqiqiy kompyuter dasturi muhitida buxgalteriya hisobining haqiqiy muammolarini hal qilish uchun amaliy harakatlar kerak bo‘ladi. Mana shu mantiq – buxgalteriya hisobida yuzaga keladigan holatlardan tortib ularni amalga oshirish uchun dasturiy vositalargacha bo‘lgan o‘quv qo‘llanmaning asosi hisoblanadi. Qo‘llanmada

<sup>1</sup> Нидз Б. и др. Принципы бухгалтерского учета / Б. Нидз, Х. Андерсон, Д. Колдуэлл: Пер. с англ./Под ред. Я.В. Соколова. -М.: Финансы и статистика, 2003, с.13.

**Партии** Субконтоси huijatlarni o'tkazishda faqatgina hisob siyosatida TMQ chiqib ketishini FIFO usulida hisobga olish tanlangandagina avtomatik ravishda to'ldiriladi.

Mazkur bayroqcha olib tashlanganida **Партии** Субконтоси schyotlardan o'chiriladi. O'tkazmalardagi partiyalar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar o'chiriladi, partiyalar hisobini yuritishni bayroqcha olib tashlangandan keyin qayta tiklash imkon bo'lmaydi, shuning uchun partiyalar bo'yicha analistik hisob yuritishni bekor qilish jarayoniga ma'suliyat bilan yondashish zarur.

Agar kamida bitta tashkilotning hisob siyosatida chiqib ketayotgan tovar-moddiy zahiralarning hisobi FIFO usulida yuritilsa, partiyalar hisobini o'rnatish zarur.

Dasturda Номенклатуранинг saqlanish joylari bo'yicha analistik hisob yuritish mumkin. Omborlar bo'yicha miqdoriy hisob yoki miqdoriy-Cуммадаги hisob yuritishi mumkin. Sozlamalar **Настройка параметров учета** оynasining Запасы bo'limida o'rnatiladi.


Saqlanish joylari bo'yicha analistik hisob yuritishni konfiguratsiyada hisob yuritishni boshlashdan oldin sozlash lozim. Agarda saqlanish joylari bo'yicha hisob yuritish ma'lumotlar bazasiga huijatlarni kiritishdan keyin amalga oshirilsa, barcha huijatlarni qaytadan o'tkazish zarur.

Agarda omborlar bo'yicha miqdoriy va miqdoriy-Cумма hisobi yuritilsa tovar-moddiy qiymatliklar schyotlariga avtomatik ravishda **Склады** tugmasi o'rnatiladi. Agarda omborlar bo'yicha hisob yuritilmasa, ushbu schyotlardan **Склады** Субконтоси olib tashlanadi. Bunda o'tkazmalardagi omborlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar tozalanadi, shuning uchun analistik hisob yuritishni bekor qilish jarayoniga ma'suliyat bilan yondashish zarur.

Tovar-moddiy qiymatliklarning analistik hisobini yuritish uchun **Номенклатура** ma'lumotnomasi mo'ljallangan. Ma'lumotnomada ishlashni sodalashtirish va kerakli pozitsiyani qidirib topishni tezlashtirish maqsadida **Номенклатура** ma'lumotnomasida element


turlari (Tovarlar, Materiallar va h.k.) bo'yicha element guruhlarini yaratish maqsadga muvofiq. Bunda aniq pozitsiyalarni tegishli guruhnинг ichida yaratish lozim.

**Номенклатура** ma'lumotnomasi oldindan asosiy tovar guruhlari ro'yxatiga ega. Zarurat bo'lganida foydalanuvchi yangi guruhlarni yaratishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. "Номенклатура" ма'lumotnomasi


Foydalanuvchi avtomatik ravishda qo'yiladigan Номенклатуранинг qisqacha va to'liq nomalanishi, o'chov birligi, QQS stavkasini, Номенклатура guruhini (faqat hom-ashyo va sotish uchun mo'ljallangan Номенклатура uchun), YUBD va kelib chiqish davlatini (faqat import tovarlari uchun) va xarajatlar moddasini (faqat hom-ashyo uchun) ko'rsatishi zarur (2-rasm).



2-rasm. "Номенклатура" ма'lumotnomasini to'ldirish


Homenklatura uchun sertifikatni ko'rsatish mumkin, zarurat bo'lganida **Реализация товаров и услуг** hujjatidan uni bosmaga chiqarish mumkin. Buning uchun **Сертификат** maydonida ... ko'p nuqta orqali **Сертификаты** ma'lumotnomasini ochish zarur.

**Сертификаты** ma'lumotnomasida sertifikatning yangi yozuvini yaratish zarur (3-rasm).




3-rasm. "Сертификаты" ma'lumotnomasi

Sertifikat blankasining skaner nusxasini biriktirish uchun tugmasini bosish zarur. Hosil bo'lgan oynada **Создать – Из файла на диске** tugmasini bosish zarur (4-rasm).




4-rasm. Sertifikat blankasining skaner nusxasini biriktirish

Hosil bo‘lgan oynada sertifikat rasmiga ega faylni tanlash va  
Записать и закрыть tugmasini bosish zarur (5-rasm).




5-rasm. Sertifikat blankasining skaner nusxasini biriktirish

Keyin rasm pastidagi maydon qo‘p nuqtasiga bosish va rasm faylini sichqonchani ikki marta bosish orqali tanlash lozim. Sertifikatni saqlash uchun Записать и закрыть tugmasi ishlatalidi (6-rasm).



6-rasm. Sertifikat blankasining skaner nusxasini biriktirish

Moddiy shaklga ega bo‘lmanan, o‘ziga xos Номенклатура ma’lumotnomasining elementi xizmat hisoblanadi. Bunday elementlar shakllariga Услуга bayroqchasi o‘rnatiladi (7-rasm).



7-rasm. “Номенклатура” ma’lumotnomasida xizmatni belgilash


**Номенклатура** ma’lumotnomasi elementi shakli bir nechta bo‘limlarga ega, ularda Номенклатура pozitsiyasining asosiy hususiyatlari ko‘rsatiladi.

Konfiguratsiya hujjatlarida andoza bo‘yicha qo‘yiladigan qiymatlarni **По умолчанию** bo‘limida ko‘rsatish mumkin.

**Номенклатурная группа** rekviziti tashkilot ishlab chiqarmoqchi (tovarlar, tayyor mahsulot, hizmatlar ko‘rsatish) yoki sotmoqchi bo‘lgan Номенклатура turlari uchun albatta to‘ldirilishi zarur.

Номенклатура pozitsiyasining ma’lum bir sanadagi narxlarini **Цены** bo‘limida o‘rnatish mumkin. Narxlarni belgilash uchun sanani ko‘rsatish, **Enter** tugmasini bosish kerak, buning natijasida jadval qismi Номенклатура narxları nomlari bilan to‘ldiriladi, kiritsh zarur bo‘lgan narxga bayroqcha o‘rnatish, narxni belgilash va **Записать** tugmasini bosish zarur. Bunda avtomatik ravishda Номенклатура


shaklida ko'rsatilgan sanadagi **Установка цен номенклатуры** hujjati yaratiladi (8-rasm).




#### 8-rasm. "Номенклатура" ma'lumotnomasida narxlarni belgilash

Номенклатура spesifikatsiyasini **Спецификации** bo'limida yaratish mumkin. Uning uchun buyruqlar panelida (Добавить Ins) tugmasini bosish zarur. Keyin spesifikatsiya shaklida nomlanishi, hom-ashyo xarajatlari normasi belgilanadigan tayyor mahsulot miqdorini ko'rsatish, jadal qismiga hom-ashyo tarkibi to'g'risida ma'lumotlarni kiritish va **OK** tugmasini bosish zarur (9-rasm).

Ushbu Номенклатура pozitsiyasi hisob schyotlarini **Счета учета** bo'limida belgilash mumkin (10-rasm).



**9-rasm. "Номенклатура" ма'lumotnomasida spesifikatsiyani kiritish**



**10-rasm. "Номенклатура" ма'lumotnomasida narxlarni belgilash**

- 12 -

## 1.2. Номенклатура schyotlari va narxlarini belgilash

Hisobvaraqlar rejasida **Номенклатура** ma'lumotnomasi tovar-moddiy qiymatliklар hisobi schyoti va subschyotlari uchun Субконто sifatida belgilangan, masalan, 1000 «Материал» schyoti uchun.

Tovar-moddiy qiymatliklarning kelib tushishi, harakati va chiqib ketishi hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi. Foydalanuvchi hujjatda Номенклатура pozitsiyasini va hisob schyotini ko'rsatishi lozim. Bundu Номенклатура hisobi schyotlari tanlangan Номенклатура pozitsiyasiga muvofiq avtomatik ravishda qo'yildi.

Foydalanuvchi hisob schyotlarining andoza bo'yicha qo'yilishidan voz kechishi mumkin, lekin unda har safar hujjatni to'ldirishda hisob schyotlarini qo'lda kiritib chiqishga to'g'ri keladi.

Номенклатура hisobi schyotlarining qo'yilishi **Предприятие - Товары (материалы, продукции, услуги)** menyusidagi Счета учета ma'lumotlar registriga muvofiq amalaga oshiriladi (11-rasm).

Счета учета номенклатуры										
Организация	Номенклатура	Оклад	Тип склада	Счет 100	Счет 101	Счет 102	Счет 103	Счет 104	Счет 105	Счет 106
Товары		Оптовый	2910	4410.3	4410.5	2903.1	8200.2	3120.2	6410	
Товары		Розничный	3020.2	4410.3	4410.5		8200.2	3120.2	6410	
Товары на складах			204.1	4410.3	4410.5	004.2	8200.2	3120.2	6410	
Товары на складах			202	4410.3	4410.5	007.2	8200.2	3120.2	6410	
Материалы			1010	4410.3	4410.5	107.2	8200	8200	8200	
Оборудование и инвентарь			0002	4410.1	4410.5		8210	8210	8210	
Оборудование и инвентарь			2710	4410.1	4410.5		8200	8200	8200	
Потребительские			2110			003.1	2000	003.2	8200	8200
Потребительские			2120				8200	8200	8200	
Потребительские			2020				8200.1	3120.1	6410	
Приемный из материалов за...							8200.1	3120.1	6410	
Услуги				6410.4			8200.2	3120.2	6410	
Взаимные тарифы			2950							
Хал.инвентарь			1000	4410.3	4410.5	107.2	8200	8200	8200	
Документы оправ			003.1	4410.3	4410.5	003.1	003.2	003.2	003.2	003.2

11-rasm. "Счет учета номенклатуры" ma'lumotnomasi

Счет учета номенклатуры registrining har bir yozuvi quyidagi ma'lumotlarga ega:


▪ **Организация** – agarda tashkilot tanlansa, ushbu tartib faqat mazkur tashkilot uchun amal qilinishini bildiradi. Har xil tashkilotlar uchun tovar guruhi yoki Номенклатура uchun har xil hisob schyotlarini belgilash mumkin;

▪ **Склад** – agarda ombor ko'rsatilsa, ushbu tartib faqat mazkur ombor uchun amal qilinishini bildiradi. Har xil omborlar uchun tovar guruhi yoki Номенклатура uchun har xil hisob schyotlarini belgilash mumkin;

- Ombor turi
  - Номенклатура hisobi schyoti;
  - Berish yoki sotish operatsiyalarida ishlataladigan schyotlar.
- Ma'lumotlar bazasini ilk bor to'ldirishda Номенклатуранинг hisob schyotlari registri barcha yaratilayotgan Номенклатура guruhlari ("Tovarlar", "Materiallar", "Yarim tayyor mahsulotlar") avtomatik tarzda to'ldiriladi. Odadta, hujjalarga andoza bo'yicha hisob schyotlarini qo'yish uchun bu yetarli hisoblanadi. Avtomatik ravishda Номенклатура guruhi bilan bog'lanmagan yozuv hosil bo'ladi. Ushbu yozuv foydalanuvchi **Номенклатура** ma'lumotnomasida yangi guruhlarni yaratib, resgitrda hisob schyotlarini ko'rsatmaganida ishlataladi. Ushbu yozuv sozlamalari "**Товары**" guruhiга to'g'ri keladi.

Yangi guruh uchun hisob schyotlarini belgilashda **Номенклатура** ma'lumotnomasidagi tovar guruhlari ro'yxatida kursor yordamida yangi guruhni tanlash va **Перейти** tugmasi orqali **Счета учета номенклатуры** registrini ochish zarur.


Yangi yozuvni  tugmasi orqali kiritish mumkin. Mayjud yozuvni nusxalash orqali yangisini yaratish  tugmasi yordamida amalga oshiriladi. Registrdagi mayjud yozuvni o'zgartirish  (Изменить текущий элемент F2) tugmasi orqali amalga oshiriladi (12-rasm).



Счета бухгалтерского учета	Счета учета НДС	Счет учета материалов заказчика
Счет учета: 2320.2 ... ×	Счет учета предъявленного НДС: 4410.3 ... ×	
Счет учета передачи:	Счет учета НДС по реализации: 6410 ... ×	
	Счет учета НДС, уплаченного на таможне: 4410.5 ... ×	
Счет учета доходов от реализации: 9020.2 ... ×		Материалы, принятые в переработку: ... ×
Счет учета себестоимости при реализации: 9120.2 ... ×		Материалы заказчика в производстве: ... ×


12-rasm. "Счет учета номенклатуры" ma'lumotnomasi

Korxonada bitta Nomenklatura uchun bir vaqtning o'zida bir nechta narx turlari ishlatalishi mumkin, masalan, harid narxi, sotish narxi. Narx turlari **Предприятия - Товары (материалы, продукция, услуги)** menyusidagi **Типы цен номенклатуры** ma'lumotnomasida belgilanadi (13-rasm).




**13-rasm. "Типы цен номенклатуры" ма'lumotnomasi**

Nomenklatura narxini aniq narx turiga bog'lagan holda belgilash uchun **Предприятие-Товары (материалы, продукция, услуги)** menyusidagi **Установка цен номенклатуры** hujjati ishlatalidi (14-rasm).



**14-rasm. "Установка цен номенклатуры" hujjati**

Yangi hujjat  tugmasi orqali yaratiladi. Hujjat shaklida ko'rsatilgan tartib kuchga kiruvchi sanani o'rnatish zarur. **Заполнить** tugmasi yordamida hujjatning jadval qismini avtomatik ravishda Nomenklatura pozitsiyasi nomlari bilan to'ldirish mumkin (15-rasm).



### 15-rasm. "Установка цен номенклатуры" hujjati

Nomenklatura narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar kelgusida hujjatlarning jadval qismlarini avtomatik ravishda to'ldirishda foydalaniladi. Foydalanuvchi narxlarini ma'lumotlar bazasida saqlashdan voz kechishi mumkin, lekin har safar sotish yoki tovar-moddiy qiymatliklarning kelib tushishi hujjatlarini to'ldirishda narxlarni qo'sha kiritishiga to'g'ri keladi.

Hujjatlarning jadval qismlarini avtomatik tarzda to'ldirish va yoprasiga o'zgartirish Nomenklatura narxlarini hisoblash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Masalan, **Основная цена закупки** turdag'i Nomenklatura narxlarini yozish uchun **Установка цен номенклатуры** hujjatini yaratish, **Тип цен** maydoniga **Основная цена закупки** qiymatini tanlash, **Заполнить** tugmasi yordamida jadval qismiga bitta yoki bir nechta qabul qilish hujjatlari narxlarini kiritish mumkin.